



O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
BUXORO VILOYATI HOKIMLIGI
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MARKAZI BUXORO
VILOYATI HUDUDIIY BO‘LINMASI**

O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-
amaliy konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

“Durdona” nashriyoti

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

	maqollarning semantik guruhlari	
Astanova G.A., Mirzoyeva Y.Y.	“Shimora”mi yoki “shumora”	106
Bafoyeva N. A.	Abdulla qodiriyning “o'tgan kunlar” romanida tarixiy antroponimlar	109
Bozorova G.Z.	Плеоназмнинг соҳаларда қўлланиш хусусиятлари	115
Fattoyeva R.B.	Bobur she'riyatida yorning qomati bilan bog'liq o'xshatishlar	120
Jumayeva M.E.	Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya tadqiqi	123
Jo'rayeva L.J.	Badiiy nutq – tilning obrazli ifodasi sifatida	129
Raxmonova F.	Badiiy asarlarda dialektik birliklarning qo'llanilishi (“shum bola” qissasi misolida)	133
Toirova G.I., Jumaeva D.B.	Antroponimik- murojaat birliklarining vazifalari	137
Toirova G.I., Quziyeva T.F.	O'zbek va ingliz tillarida qisqartma so'zlarning ifodalanishi	141
Umarova D.F.	Сельское хозяйство на английском и узбекском некоторые фразеологические союзы	147
Uchqunova A.S.	Buxoro shaharidagi kasb-kor bilan bog'liq godonimlar	154
Xamdamova G.X.	Somatizmning madaniyat va tildagi o'rni	158
Yusupova D.Y.	H. Xudoyberdiyeva she'rlarida so'z zimmasiga yuklangan ma'no	163
Yo'ldosheva N.Q.	Mehnat konseptini ifodalovchi leksemalar tahlili	167
O'rinova M.O.	O'zbek xalq maqollarida arxaizmlar	172
3-sho'ba. O'zbek lug'atchiligi muammolari		
Nazarova D.G'.	Мактаб она тили таълими ва ўқув лугатчилиги муаммолари	175
Xayrullayeva M.O.	Buxoro viloyat vobkent tuman mikrotoponimiyasining mavzu guruhlarini tasnifi	182
G'aybullayeva N.I.	Тиббиёт лексикографияси ва унинг тили хусусида	187
4-sho'ba. Davlat tilida ish yuritish masalalari		
Qobilova S.S.	O'zbek tili davlat tili sifatida	192
Yunusova M.Sh.	Тил - миллий ўзлгимиз тимсоли	194
5-sho'ba. O'zbek alifbosi va imlosi muammolari		
Hojiyeva N.H.	Ўзбек тилида мевачилик лексикаси	198
6-sho'ba. Soha lingvistikasida yechimini kutayotgan muammolar		
Baxriyeva U.M.	Teri kasalliklarini ifodalovchi tibbiy lingvistik birliklar	203

“Shifokor”, “Tadbirkorlar”, “Temiryo‘lchilar”, “Suvchilar”, “Geologlar” kabi godonimlarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

Buxoro shahar ko‘chalarini o‘rganishda bir qancha nomlarning mazmuni, qo‘yilish sababi izoh talab etadigan holatlar mavjud. Ayrim godonimlarni esa o‘zgartirish tavsiya etiladi. Keyingi ishlarimizda bu borada alohida to‘xtalamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponimika. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. –B.5.
2. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –М.: Наука, 1976. – Б.187-188.

SOMATIZMNING MADANIYAT VA TILDAGI O‘RNI

Xamdamova Gulshan Xamroyevna,
BuxDU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada somatizmlar asosida qurilgan birikmalarning turli xalqlar madaniyatida(rus va ingliz tillari misolida) turlicha ma’no aks etishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: leksik ifoda, fraziologik leksika, somatik ob’ekt, kommunikativ, semiotik kontseptlashuv.

Inson qiyofasini tasvirlashda, turli xildagi holat va xususiyatlarini berishda tilning leksik vositalari hamda til tajribasi asosida olingan psixologik obrazlardan foydalanamiz. Turli tillar til egasiga nafaqat voqelikning bir xil unsurlarini turlicha shakllarda aks ettirish imkonini beradi, balki ular madaniyat elementlari hisoblanib, so‘zlovchida dunyo haqidagi ma’lum tasavvurlarni uyg‘otadi hamda insonga voqelikni faqat ma’lum bir tilga xos tarzda tasvirlash imkonini yaratadi.

Rus va ingliz tillari materiali asosida turli voqelikni ifodalash uchun ishlatiladigan birliklarning individual xususiyatlarini qiyosiy tahlili bilan ko‘pgina tadqiqotchilar shug‘ullanishgan. Tana qismlarining nomlari, ya’ni ko‘pchilik madaniyat va tillar uchun universal hisoblangan somatizmlar so‘z yoki birikma elementlaridir, zero har qanday til va madaniyat egalari fiziologik jihatdan bir xil tuzilgan. Biroq tananing barcha qismlari ham tilda bir xil ahamiyatga ega emas, ularning ba’zilari boshqalardan ko‘ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu holat N.V.Masaleva, S.V.Bogalepova, M.Nassiri,

I.E.Gorodetskaya, Yu.M.Muratov, Yu.A.Dolgoplov, Ye.F.Arsent'eva, O.A.Kononova, L.I.Xarchenkova, Yu.A.Shashkov, O.Nazarov, M.N.Azimova, Yu.A.Dolgoplov, Ye.F.Arsent'eva, O.A.Kononova, L.I.Xarchenkova, Yu.A.Shashkovlar, O.Nazarov, M.N.Azimova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

N.A.Bagdasarova tadqiqoti rus va ingliz madaniyatida his-tuyg'ularning leksik ifodasini o'rganishga bag'ishlangan (frazelogik leksika), lekin unda somatologik leksika bilan bog'liq ma'lumotlar ham mavjud. N.A.Bagdasarovanning ta'kidlashicha, ikkala tilda ham tananing eng "ifodali" qismi yuz hisoblanadi. Ammo o'xshashlik shu bilan tugaydi. Tananing qolgan qismi uchun u ikki tilda qarama-qarshi ma'no kasb etadi. Rus tilida ko'zlar yorqin ajralib turadi. Ingliz madaniyatida esa asosiy urg'u bosh va tanaga beriladi. Inglizlarda qorin bilan bog'liq juda ko'p frazeologizmlar mavjud (turn your stomach, not have the stomach for, get butterflies in your stomach) bo'lsa-da, rus tilida qoringa taalluqli yagona belgi qayd etiladi (cocer под ложечкой).

Ikkala tilda hissiyotlarni ifodalashning ayrim xususiyatlari bir-biriga mos keladi (masalan, hayron qolish ko'zlar orqali, qo'rquv esa tana va oyoq-qo'l orqali yaxshiroq ifoda qilinadi). Lekin mazkur holatlar hamma vaqt ham ikkala tilda bir xil emas. Masalan, nafrat tuyg'usi inglizlarda frazeologizmlar yordamida ifodalanib, ularning tarkibiga qo'l-oyoq nomlari kiradi. Rus tilida esa, aksincha, ularni nomlaydigan birorta ham so'z yo'q.

Rus tili lisoniy manzarasida tananing ma'lum qismi qanday o'rin tutishini o'rgangan yana bir nechta tadqiqotlarga to'xtalib o'tish joizdir.

Ye.Stoyanova tananing ko'z qismiga tegishli somatik frazeologik birliklarni o'rgangan. Tadqiqotchi ruslarda ko'zlar ma'lum bir sehrli kuchga ega ekanligini aytib o'tadi. Olim inson ko'zlari yorug'lik va qorong'ulikni ifoda etadi, degan xulosaga kelgan. Ye.Stoyanovanning fikricha, ko'z nafaqat ilohiy ma'noni, balki insonning o'ziga xos ramzi, uning jismoniy yoki ma'naviy tomonlari, inson qobiliyati va ko'nikmalarining mezoni sifatida ham namoyon bo'ladi. Ko'zlarda odamning ma'naviy sifatleri va ko'nikmalari aks etishi mumkin. Ko'zlar bilan bog'liq frazeologik birliklar turli his-tuyg'ular va hissiyotlarni ifoda qilishi mumkin. Hayrat, g'azab, tannozlik, kuchli taassurot va diqqat shular jumlasidandir. D.B.Gudkovning fikricha,

“chegara ustunlari” sifatida keladigan tana qismlari (biqin, yelka, ko'krak va boshq) madaniyatning somatik kodida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, tana chegarasining muhim belgilaridan biri – bu burun. D.B.Gudkov turli frazeologizmlarda burun masofaviy chegarani bildirib, unga yaqinlashish umuman insonga yaqin borishni bildiradi (masalan: burni oldidan, burnima-burun, burnidan keyinni ko'ra olmaslik). Frazeologizmlarda burunga nafaqat hid bilish, balki ma'lumot olish qobiliyatiga ham ega (burunni tiqish). Yuzning eng ko'rinarli qismi sifatida metonimik jihatdan burun insonning o'rnini bosishi mumkin. Tadqiqotchining aytishicha, burunning shakli va hajmi tashqi qiyofaning eng ahamiyatli qirrasini hisoblanib, burunga qahramonlik va lirika mutlaqo xos emas.

G.E.Kreydlin va boshqalar alohida somatik ob'ektlarning semiotik kontseptlashuvini o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar o'tkazishgan.

Ularning ta'kidlashicha, bosh tananing boshqa qismlariga xos bo'lmagan maxsus vazifa - fikrlash qobiliyatiga ega. Bu aqlga kelmoq, boshsiz, bosh bilan o'ylamoq, kallalik kabi til birliklarida o'z aksini topgan.

Olimlar yelkaning uchta funktsiyasini ajratishadi: yuk tashish, bosh va bo'yinni tana bilan bog'lash, insonning o'tmishi va kelajagi o'rtasidagi chegara.

Qayd etilishicha, insonning tashqi qiyofasini tasvirlashda yuz va uning qismlariga alohida e'tibor beriladi. Chunki yuzda turlicha his tuyg'ular va kechinmalar, shuningdek, boshqa kishiga munosabat ifodalanadi: yuzi o'zgardi, yuzidan ma'lum va boshqa. Qolaversa, yuz insonni yaxlit ijtimoiy birlik sifatida ham namoyon qilishi mumkin (masalan – yuridik shaxs).

Burun va burun teshiklari nafas olish, hid bilish, odam organizmiga tashqi dunyodan o'zga ob'ektlarning kirib kelishi nuqtai nazaridan bog'liqlikka ega (burundan nafas olish, burun hidni seza boshladi).

Bo'yinni tasvirlashda uning alohida shakli va kattaligi (uzun/kalta bo'yin), egiluvchanligi va go'zalligiga e'tibor beriladi. Bo'yin odamning barcha xatti-harakatlarida faol ishtirok etadi: bo'yinga osilish, bo'yin tovlash.

Mualliflarning ta'kidlashicha, rus tilida ko'krak so'zi bir nechta ma'noga ega. Agarda tananing yuqori qismi nazarda tutiladigan

bo'lsa, ko'krak deganda nafas olish uchun kerak bo'lgan muhim organlar joylashgan joy tushuniladi: ko'krak bilan nafas olish, ko'krak ko'tarilishi, to'lqinlanishi. Bundan tashqari, murakkab vaziyatlarda ko'krak himoya va hujum qiluvchi vazifani bajaradi: ko'krak bilan himoya qilish. Yurakning joylashuvi sifatida ko'krak his-tuyg'ularni ham ifoda qiladi: ko'krakka qo'rquv kirdi. Estetik nuqtai nazaridan ayollar ko'kragini ta'riflashda uning kattaligi va hajmi e'tiborga olinadi. Rus madaniyatida katta va mustahkam ko'krak jozibador hisoblansa, kichkina ko'krak ayollar qiyofasini buzadi, deb qaralgan. Osilgan, oriq va shalvirab qolgan, shuningdek, qari (yoshiga ko'ra) ko'krak salbiy baholangan. Nazarimizda, ko'krakning bunday baholanishida ma'lum qonuniyatlar mavjud. Zero, mustahkam va tarang ko'krak sog'lom hisoblanib, bolani boqishga qodir bo'ladi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, rus tilida ayollar ko'kraging mazkur vazifasiga oid ko'plab ifodalar mavjud: ko'krakka bosish, ko'krak bilan boqish. Shuning o'zi erkaklar uchun ham xosdir. Keng va mustahkam ko'krak erkaklar uchun estetik jihatdan jozibador hisoblanadi. Balki shu bois ko'krakning himoya ma'nosidagi vazifasi kelib chiqqandir.

Tadqiqotning ikkinchi qismi somatik ob'ektlar belgilari va ularning ma'nolarini yoritishga bag'ishlangan. Bu borada 1) tarkibiy belgilar; 2) fizikaviy belgilar; 3) somatik ob'ektlarning asosiy funksional belgilari farqlanishi mumkin.

Tarkibiy belgilarga yuzaning xususiyatlari (peshonadagi ajinlar) va bo'shliqlar (quloq teshigi, bir quloqdan kirib, ikkinchisidan chiqib ketdi) kiradi.

Fizikaviy belgilarga shakl, kattalik, rang, harorat, tovush, quruqlik va boshqalar kirsa, rang tananing barcha uchun muhim jihati hisoblanadi (odatda ko'zlar, yuz, soch, teri). Somatik ob'ektning rangi insonning ma'lum bir etnik, ijtimoiy yoki yosh guruhiga tegishli ekanligini ko'rsatishi mumkin.

Stereotipik jihatdan rus madaniyatida terining oqligi, moviy ko'zlar, qizil lablar go'zal sanaladi. Ranginng o'zgarib qolishi jismoniy (qip-qizil bo'lib qolmoq) yoki emotsional holatning (jahli chiqqandan oqarib qoldi), qolaversa, tashki sharoitlarning o'zgarishini (oftobda qorayish) bildirishi mumkin.

Tadqiqotchilar rus tilida tana qismlarining ishlashi va harakati bilan bog'liq shakl va hajm kengroq darajada, belgilari esa kamroq

tarqalganligini ta'kidlashadi. Harorat nafaqat jismoniy (issiq burun), balki insonning hissiy holatlari (issiq yurak)ga ham bog'liq bo'lishi qayd etiladi.

Somatik ob'ektlarning vazifalari, bir tomondan, inson tanasining anatomik tuzilishi, ikkinchi tomondan - insonning fiziologik va ijtimoiy vazifalari bilan belgilanadi. Fiziologik funktsiyalar haqida, ko'pincha, disfunktsiyalar dalolat beradi: tildan qolish, oyoqlar qotishi. Fiziologik bo'lmagan funktsiyalar qatoriga olimlar tomonidan madaniy va ijtimoiy (qo'l siltash, ko'z suzish), shuningdek, imo-ishoralarda namoyon bo'ladigan kommunikativ va estetik funktsiyalar kiritiladi.

G.E.Kreydlin va A.B.Letuchiy ta'kidlaganidek, tananing ko'p qismlari uchun aynan hajm muhim ahamiyat kasb etadi. Fiziologik o'lcham tananing umumiy estetik baholanishida katta rol o'ynaydi (katta ko'zlar, lekin qisqa qo'llar). Bundan tashqari, bunday xususiyatlar inson mohiyatini aks ettirishi mumkin (tili uzun), his-tuyg'ular (ko'zlarni katta qilib ochish). Tana qismining ichki tuzilishi (ozg'in yelkalar) alohida ajralaib turadi. Yelkalar uchun ochiqlik/yopiqlik kategoriyasi alohida ko'rib chiqiladi (bu tananing boshqa qismlari uchun muhim bo'lishi mumkin): yelkalarining turli darajadagi ochiqligi turli madaniyatlarda estetik jihatdan xar xil baholanadi.

Shunday qilib, somatizmlar til leksik tarkibining muhim qismi bo'lib, nafaqat insonning jismoniy holati haqida, balki til tashuvchisi tomonidan muayyan madaniy jamoada qabul qilingan til va madaniyat, estetik me'yorlarning idrok etilishi haqidagi ma'lumotni o'zida mujassam etadi. Voqelikning ushbu sohasini o'rganishga bo'lgan barqaror qiziqish aynan shu bilan izohlanadi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Гудков.Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. М.,2003.
2. Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика. Язык тела и естественный язык. М., 2002.
3. Летучий А.Б. Русский язык о ситуациях. Конструкции сентенциальными актантами в русском языке. М.,2002.
4. Багдасарова Н. А. Соотношение вербализованных эмоций в русском и английском языках. Автореф.дисс. ... канд. филол. наук. 2006.

